

## O'QUVCHILARDA O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHDA IJODIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Islamatdinov Sherizad Paraxat o'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti 2-bosqich Pedagogika va Psixologiya mutaxasisligi  
magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quv motivlari mohiyati, o'qish motivlari manbalari, o'quv motivlari tafsifi haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, o'quv faoliyatining ichki, tashqi va shaxsiy (xususiy) faoliyit manbalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** motivatsiya, o'quv motivlari, dinamik, o'zligini anglash motivlari, salbiy motivlar, maqsadlar, qiziqish, ehtiyoj.

### KIRISH

Inson hayoti davomida qandaydir faoliyatni amalga oshirar ekan, faoliyatni samarali bo'lishi insonning mazkur faoliyatga nisbatan intilish, hohish yoki istaklariga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda motivatsiya masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi. Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustakovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Bugungi kunda jamiyat a'zolari oldiga qo'yilgan ulkan maqsadlarga erishish uchun davr talablariga javob bera oladigan, zukko, ma'rifatli, insonparvar, mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan, tadbirkor, yangilikka intiluvchi, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan yoshlarni ta'llim jarayonida shakllantirish zaruriyati vujudga keldi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning shunday fikrlari bor: "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir". Chindan ham, bugun farzandlarimizga ta'llim- tarbiya bermas ekanmiz, kelajakni kutolmaymiz. Motivatsiya shaxs faolligi, xulqi va faoliyatini tartibga soluvchi muhim omildir. Chunki insonning har xil xatti-harakatlari ostida ushbu xatti-harakatlarga undovchi asoslar, ularning motivatsiyasi yotadi. Shuning uchun ta'llim jarayoniga faqatgina o'quv – biluv motivlarigina emas, barcha keng qamrovli motivlar o'z ta'sir doirasi bilan ta'sir etib turadi.

### ASOSIY QISM

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zida mayillar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir. Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi ma'lum savol psixologlar tomonidan ifodalab berilgan. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faoliyit manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomonga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar

sifatida energiya va xulq-atvorga taqsimlaydilar. Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtayi nazardan yondashish orgali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o'ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo'lib, ularning nazarida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiylar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g'oyalar va yo'nalishlar mujassamlashgan. Rus psixologiyasi namoyondalari K.D.Ushiniskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazuriskiy, V.N.Myasishev, A.A.Uxtomiskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, L.I.Bojovich va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari olib borganlar. Rus psixologiyasi vakillaridan tashqari Yevropa va Amerika mamlakatlarida motivatsiyaga oid o'ttizdan ortiq ilmiy konsepsiylar mavjuddir. Ana shu psixologik maktablarning ayrim namoyondalarining tadqiqotlari yuzasidan mulohaza yuritishiga harakat qilamiz: interospektiv psixologiya, bexiviorizm, geshtalt psixologiya, psixoanaliz, strukturaviy psixologiya, assosianistik psixologiya, empirik psixologiya, analitik psixologiya, gumanistik psixologiya, antropologik psixologiya va boshqalar. Ta'lim - tarbiya jarayonida o'qish motivatsiyasining o'rni butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tomonlama o'rganilgan. O'quv samaradorligini oshirishda o'quv motivatsiyasining rolini chet el olimlari o'z tadqiqotlarda tadqiq qildilar. E.Torndayk tajribalarning alohida tomoni ularning juda tor va cheklangan xarakterga ega ekanlidigadir: ular real o'quv jarayoni bilan juda oz darajada bog'langandir. Vaziyat nazariyasini diagnostika qilish vazifalarini tadbiq qilgan G.Rozenfeld (1975) ko'rasatadiki, vaziyat atrof- borliqning vaqtinchalik va fazoviy tavsifidir va u subyekt bilan obyektning integratsiyasi tomonidan belgilanadi. O'quv motivlari – bu o'quvchilarni o'quv faoliyatining turli tomonlariga yo'naltirishdir. Masalan, o'quvchilarning o'zi o'rganayotgan obyekt bilan bajaradigan ishiga qaratilgan bo'lsa, ularni bilish motivlari deb atash mumkin. Agar o'quv faoliyati o'quv jarayonida turli kishilar bilan to'g'ri muloqat qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, ijtimoiy motivlar namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ba'zan o'quvchilarda bilish jarayoni, qolganlarida esa boshqalar bilan muloqat o'qish faoliyatini motivlashtirib turadi. A.K.Markova motivlarni 2 ta katta guruhlarga ajratgan.

1. O'quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog'liq bilish motivlari.
2. O'quvchilarning boshqa kishilar bilan o'zaro ijtimoiy (sosial) motivlari. Bu motiv turlari psixologik adabiyotlarda keng o'rganilgan.

Psixologlar tomonidan o'quv motivatsiyasining salbiy va ijobiy tomonlari mavjudligi ta'kidlab o'tilgan. Salbiy motivlar o'quvchi tomonidan agar u o'qimasa, ko'ngilsizlik, noqulaylik va noaniqlikni vujudga kelishi bilan bog'liq holda anglangan undovchilardir. Ijobiy motivlar o'qish bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish, bilim egallashning yangi usullarini o'zlashtirib olish, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishda o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. O'qituvchining diqqat markazida o'quv motivlarining namoyon bo'lish shakllari turishi kerak. Bu asosda o'qituvchi o'quvchi faoliyatining motivlari haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi. Shundan so'ng motivlarning ichki xususiyatlari salbiy modallikka ega

bo'lgan ko'ngilsizlikdan qochish kabi barqaror motivlarga e'tibor berishimiz lozim. Motivlarning yana bir muhim xususiyati uning vujudga kelish tezligida ifodalanish va kuchida o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. Demak, ta'lim jarayonida ta'lim motivatsiyasining o'rni butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tamonlama o'rganilgan. O'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'quv motivatsiyasining ro'li benihoya kattadir. Nega deganda o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini motivatsion soha orqali rivojlantirilsa, samarali natijalarga ega bo'lish mumkinligini olimlar o'z tadqiqotlarida isbotlab o'tganlar.

O'qitish - ta'lim jarayoniga undash va uni qo'llab-quvvatlash. Biz ta'lim jarayonida faol qatnashuvchi, o'z qarashlari uchun ma'suliyatni his eta oluvchi shaxsni tarbiyalashimiz lozim. O'quv motivlari mohiyati. Motivlar tizimi o'quv faoliyatining harakatga keltiruvchi kuchi-qo'zg'atuvchisi bo'lib, ular o'z tarkibiga bilish ehtiyojlari bilan bog'liq quyidagi singari o'ta muhim jihatlardan iborat: - maqsadlar; - qiziqishlar; - intilish; - g'oyalar; Zikr etilgan o'quv motivlari tizimi o'zining mustahkamligi hamda dinamik xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. O'quv motivatsiyasining mustahkamligini uning tarkibiga kiruvchi yetakchi ichki motivatsiyalar majmuasi belgilab beradi. A.K. Markovaning e'tiroficha, ijtimoiy motivlar bilish bilan bog'liq motivlarni keltirib chiqaradi. Bu motivlar o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, ba'zan esa uning aksi kabi bir-biri bilan qarama –qarshi shakllarga ega bo'lib, u bolaning yosh xususiyati va unga yaratilgan sharoitlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Olima o'quvchilarning o'qish-bilish bilan bog'liq motiv sifatlarini quyidagi turlarga ajratadi: Mazmunli – ya'ni ta'lim faoliyati xarakteri bilan bog'liq (anglanganlik, mustaqillik, umumiylilik, o'z o'rniga ega bo'lishlik va boshqalar). Dinamik - bolaning umumiy rivojlanishi bilan bog'liq o'ziga xos psixofiziologik xususiyatlari (qiziqishlarining mustahkamligi, uning iroda va iroda kuchi, qiziqishlarini bir faoliyatdan ikkinchisiga almashtira olish qobiliyati, motivlarining rang-barangligi) bilan bog'liq va boshqalar. O'quv motivi bu ma'lum bir faoliyatga yo'naltirilgan xususiy motivdir. Bu o'rinda faoliyat turi – o'qish, o'rganish, bilish faoliyatidir. O'quv motivlari rivojlanib kelayotgan o'quvchiga nafaqat o'z yo'nalishini belgilab olishni, balki o'zida mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solishni hamda emotSIONAL-irodaviy jihatlarini ham namoyon qilish va rivojlantirishda muhim omil vazifasini o'tab beradi. Shuningdek, u o'quvchining ma'lum bir oraliqdaga o'quv faoliyatini xolisona baholash va undagi sifat o'zgarishlarini aks ettirishning muhim omili vazifasini ham o'tashga xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlari singari ta'lim faoliyati motivatsiyalari ham shaxsda mavjud juda ko'plab quyidagi singari omillar bilan belgilanadi yoki ularga chambarchas bog'liq bo'ladi: - ta'lim tizimining xarakteri; - ta'lim muassasasida pedagogik jarayonning tashkil qilinishi; - ta'lim oluvchilarining o'ziga xos (jinsi, yoshi, bilim darajasi, qobiliyati, o'qishbilishga bo'lgan munosabati, o'zini baholay olishi, boshqalar bilan hamkorlik qila olish sifatlari) jihatlari; - o'qituvchi(pedagog) shaxsi va uning o'quvchilarga hamda pedagogik faoliyatga bo'lgan munosabati; - o'quv fanining o'ziga xosligi. O'qish

motivlari manbalari. Ta'lim faoliyati ko'pmotivlilik xususiyatiga ega, chunki ta'lim oluvchi o'quvchining faollik manbalari xilma-xil va rang-barangdir.

### **XULOSA**

Bugun yuqorida ko'rib o'tilganlarga xulosa qilib shuni aytamanki, o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning barcha motivlari orasida ichki ta'lim motivatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi mahoratli pedagog bo'lar ekan, kamol topayotgan har bir o'quvchi yuksak salohiyatli bo'lib yetishadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jo'rayev N.S. "O'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish va o'rganishning psixologik xususiyatlari" Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2006. 107 b.
2. Jo'rayev N.S. "O'quv motivlarini shakllantirish" - Toshkent:TDPU.2008.-62 b.
3. Xaydarov F., Halilova N."Umumiyl psixologiya " Toshkent 2010. – 330b